

YOZMA SAVODXONLIKNI OSHIRISHDA INSHONING O'RNI

Toshkent davlat universiteti O'zbek tili fakulteti 4-bosqich talabasi
Bo'ranova Rushana

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktablarda yozma savodxonlikni oshirishda o'quvchilarning ona tili va adabiyot darslarida tashkil etiladigan insholarning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: yozma ish turlari, yozma savodxonlikni oshirish, yozma savodxonlikda kreativ fikrlash, imlo qoidalari, insho va uning turlari.

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda umumta'lim maktablarida o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirish, ularda kreativ fikrlashni shakllantirish o'qutuvchilar oldida turgan asosiy muammolaridan biri sanaladi. Ba'zi holatlarda yozma ishlarni tahlil qilish jarayonida o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan imlo qoidalari, punktuatsiya qoidalari, mazmundan chetlashish holatlari hamda rejani to'g'ri tanlamaslik kabi uslubiy xatolarga duch kelamiz. Bunday holatlarning oldini olish yoki o'quvchilar yozma savodxonligida yuqoridagi xatolarni keskin kamaytirish pedagog kadrlarning oldida turgan eng asosiy vazifasi hisoblanadi. Yozma savodxonlikni quyidagi turlarga bo'lishimiz mumkin:

1. Imlo savodxonligi.
2. Punktuatsion (tinish belgilari) savodxonligi.
3. So'z uslubshunoslik savodxonligi.
4. Kreativ fikrlash orqali matn tuza olish savodxonligi.

Ona tili darslariga xos tarzda amalga oshiriladigan ona tili darslarining uslubiy me'yori va qonuniyatlariga asoslanishi yuzasida amalga oshiriladigan yozma ishlar va ularning turlari: diktant, insho, esse, ijodiy bayon, o'quvchilarning og'zaki nutq boyligi va mustaqil fikrlashini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Yozma ish inson fikrlarining yozma shakldagi ifodasidir. Bu nafaqat ta'lim jarayoni, balki kundalik turmushning har bir jabhasida ham katta ahamiyatga ega. Yozma nutq og'zaki nutqdan bir qancha jihatlari bilan farqlanadi. Avvalo, yozma ish adabiy tilda yozilgani, argon, jargon, varvarizmlardan holi bo'lishi, rasmiyligi, mantiqiy va izchil bo'lishi, grammatik qoidalariga amal qilinganligi, maqsadga yo'naltirilganligi, kabi qoidalar asosida yozilishi talab etiladi. Yozma ish yozma shaklda bajarilgan ijodiy matnlar (insho, ijodiy bayon), tinglab tushinish, xotira kuchini belgilash, tafakkur darajasi va fikrni yozma tarzda bayon qilish ko'nikmasini aniqlashga qaratilgan bayonlar ilmiy xarakterdagi ishlar uchun yozma ish, ijodiy ishlar uchun insho termini qo'llaniladi. Ona tili darslarida o'quvchilarning bilim darajasini baholash uchun yozma ishning turli shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Diktant – orfografik va punktuatsion xatolarni nazorat qilishning eng asosiy shakllaridan biridir. Bunda o'quvchilarning sinflaridan kelib chiqib quyidagicha belgilanadi:

1. 5-sinflar uchun – 80-100 so'z;
2. 6-sinf uchun – 100-110 so'z;
3. 7-sinf uchun – 110-120 so'z;
4. 8-sinf uchun – 120-150 so'z;
5. 9-sinflar uchun – 150-170 so'z.

Diktantlar adabiy til me'yorlariga amal qilish, hamda berilgan sinf o'quvchilariga oson bo'lgan diktant tanlash lozim. O'quvchini kasbga yo'naltirish, muayyan sohalar haqida tasavvur va bilim hosil qilish har bir fan o'qituvchining burchi sanaladi. Yosh avlodni yoshligidan kasbga tayyorgarlik va tasavvurni oshirishi uchun ona tili va adabiyot fanidagi matnlar, "Men tanlagan kasb" kabi mavzudagi insholar yetakchi o'rinni egallaydi. Insho muallif tomonidan ijod etiladi va yoziladi.

Insho belgilangan maqsadga ko'ra 2 xil bo'ladi:

1. Ta'limiy insholar
2. Sinov insholari

Ta'limiy insholar o'quvchi tomonidan yozilib, ijodiy fikr yuritishga qaratiladi.

Sinov insholari esa o'rganilgan mavzularga oid bilimlarni, insho yozish ko'nikma va malakalarini sinash va baholash uchun o'quvchilar bilan mavzu tugaganidan so'ng yoki choraklik, yillik nazorat sifatida o'tkaziladi.

Insho arabcha so'z bo'lib, "tahlil etish", "barpo etish", "qurish", "yaratish", "ijod", "bayon" degan ma'nolarni anglatadi. O'quvchilar insho yozish orqali bir mavzu asosida o'z fikrlarini yozma shaklda bayon qilish orqali so'z qo'llash mahorati, so'z boyligini oshirish, fikrlash ko'nikmasi, namoyon bo'ladi. Inshoda o'quvchi ma'lum bir mavzuni mustaqil ravishda fikrlab ochib berishi talab etiladi. Ona tili darslarida o'quvchilardan, asosan, erkin mavzudagi insholar yozish ko'nikmasini shakllantiradi. Adabiyot darslarida o'z navbatida adabiy mavzudagi insholar orqali o'quvchilarda biror asardanolingana tasavvurlarini, shu asosda yuzaga kelgan xulosalarini bayon etadi. Adabiy mavzudagi inshoda muayyan yozuvchi, shoirning hayoti va ijodi, qahramonlar, характери, fe'l-atvori, faoliyati, taqdiri tahlil qilinadi, ijodiy yondashuv, mustaqil fikrlash inshoning zarur sharti. Ta'lim jarayonida adabiy mavzuga insholar keng yo'lga qo'yiladi. Reyting tizimlari oraliq va yakuniy nazoratlarini insho ko'rinishida o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Adabiy mavzudagi insholar o'rta ta'lim o'quvchisining badiiy nutqini rivojlantiradi, unga o'zlashtirish, sifatlash, jonlantirish, mubolag'a singari adabiy tasvir vositalaridan foydalanishni, oddiy so'z bilan ma'noli fikr bayon etishni o'rgatadi. Insho yozish jarayonida o'quvchilar oldiga qo'yiladigan eng asosiy vazifalardan yana biri mazmunga mos ravishda reja tuzish hisoblanadi. Reja ish faoliyatini tartibga solish, amalga oshirish rejimidir.

Reja foscha -tojikcha "fikir yozish", "ip" arqon "saf" "qator" ma'nosidagi so'z bo'lib, barcha ishni tartib bilan o'z vaqtida bajarish uchun oldindan belgilab olingan aniq, belgili bir tartib. Bu bosqichda pedagoglar o'quvchilarga 2-xil ko'rinishdagi reja tuzish ko'nikmasini shakllantirishni talab qiladi. Sodda ko'rinishdagi insho rejalashtirish turli joylarda undagi gaplar tarkibini 1), 2), 3)... shaklida arab raqamlaridan so'ng yarim qavs emas, balki nuqta qo'yish talab etiladi.

Masalan:

Mavzu: *"Vatan - ostonadan boshlanadi."*

Reja:

1. *"Vatan - ona kabi muqaddas."*
2. *Or-nomus va el-u-yurt kuyrashi.*
3. *Mustaqillik - muborak ona diyor!*

Insho yozishda sodda ko'rinishdagi rejalar bilan bir qatorda murakkab ko'rinishdagi rejalar tuza olish ko'nikmasi o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini yanada rivojlantirishi uchun xizmat qiladi. Murakkab ko'rinishdagi reja namunalarida sodda rejalar o'zining "kirish", "asosiy qism", "xulosa" tarzida tarkibiy bo'limlarga ajratilishi bilan ajralib turadi

Reja mavzuga mos bo'lishi va maqsadga muvofiq tuzilishi kerak.